XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 23-oktabr VI-29-65-11-155-K/26 Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2027-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi **965-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi **126-son** Farmoniga muvofiq, 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish bilan ta’minlash uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish maqsadida, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2026-yil 30-sentabrdagi 32/08-01/16-10-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining **6- va 24-moddalariga** asosan xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2026-yil 30-sentabrdagi 32/08-01/16-10-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi **98-son** Farmoniga muvofiq ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi hamda **126-son** Farmoniga muvofiq ish o‘rinlarini majburiy zaxiralash tartibi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining takliflari ma’qullansin va 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun jami **694** ta ish o‘rni zaxiraga qo‘yilsin, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — **298** kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun — **47** kishi;

ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari uchun — **320** kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun — **5** kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun — **21** kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun — **3** kishi.

4. 2027-yilda zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi **50 foizdan** yuqori bo‘lgan korxonalar) bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida **25 foizini** kalendar yil boshlanishidan oldin **10 kundan** kechiktirmay tayyor holga keltirsin hamda bu haqda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga axborot **taqdim etsin**;

ish o‘rinlarining qolgan qismini kalendar yilning birinchi choragi davomida zaxiraga qo‘ysin hamda birinchi chorak tugaganidan keyin **10 kun** ichida bu haqda axborot **taqdim etsin**;

ishga joylashtirilgan fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oy hisobot oyidan keyingi oyning **5-sanasiga** qadar taqdim **etib borsin**.

Ish o‘rinlarini zaxirada saqlash **“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi** Qonunning **40-moddasiga** muvofiq amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi **64-son** qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslarni belgilangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ish beruvchilar subsidiya olish huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning **3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-** va **41-moddalariga** muvofiq mazkur qaror talablarini bajarmagan ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Jarima qo‘llanilishi ish beruvchini zaxiraga qo‘yilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish majburiyatidan ozod etmaydi.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig’i D.Dadamirzayev:

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini “Bandlik xizmati” axborot tizimi orqali ish beruvchining “**YaMMT” IDAK**dagi shaxsiy kabinetiga yuborsin;

qaror ijrosi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshirsin;

qaror talablarini bajarmagan yoki fuqarolarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi D.Dadamirzayev zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror 2027-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **DADABOYEV KAYUM KADIROVICH**

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2026-yil 23-oktabrdagi
VI-29-65-11-155-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Dang‘ara tumanida 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**9 881**	**694**	**298**	**47**	**320**	**5**	**21**	**3**
1	"6-maktab	206884196	97	7	3	2	1	1	0	0
2	19- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207042150	46	3	1	0	2	0	0	0
3	25-sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti"	207090092	23	2	1	0	1	0	0	0
4	Barkamol avlod bolalar markazi	207123571	69	5	2	0	3	0	0	0
5	4-sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207008096	80	6	2	1	3	0	0	0
6	14-maktab	206884275	98	7	3	1	3	0	0	0
7	26-maktab	206884362	126	9	4	1	3	0	1	0
8	40-maktab	206884497	67	5	2	1	2	0	0	0
9	43- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	306679470	30	2	1	0	1	0	0	0
10	38-maktab	206884473	78	5	2	1	2	0	0	0

11	54- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308056485	51	4	2	0	2	0	0	0
12	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo`limi" davlat muassasasi	200165501	26	2	1	0	1	0	0	0
13	8-maktab	206884212	65	5	2	1	2	0	0	0
14	20-maktab	206884323	90	6	3	0	3	0	0	0
15	20- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207042071	27	2	1	0	1	0	0	0
16	32- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti I	305609225	49	3	1	0	2	0	0	0
17	12- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207031727	38	3	1	0	2	0	0	0
18	56- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308545423	37	3	1	0	2	0	0	0
19	1-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktab-internati	201816401	45	3	1	0	2	0	0	0
20	3- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207042579	36	3	1	0	2	0	0	0
21	7- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207089844	53	4	2	0	2	0	0	0
22	24-maktab	308914160	79	6	2	1	2	0	1	0
23	5- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207032338	63	4	2	0	2	0	0	0
24	26- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090440	42	3	1	0	2	0	0	0
25	Dang‘ara tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi	200164914	79	6	3	0	3	0	0	0
26	Dang‘ara tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi davlat muassasasi	200164961	65	5	2	0	3	0	0	0
27	29- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546645	26	2	1	0	1	0	0	0
28	33- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546828	33	2	1	0	1	0	0	0
29	Dang'ara tumani Axborot-kutubxona markazi davlat muassasasi	306676665	25	2	1	0	1	0	0	0
30	30- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305586762	50	4	2	0	2	0	0	0

31	29-maktab	206884386	83	6	3	1	2	0	0	0
32	35-maktab	206884441	70	5	2	0	3	0	0	0
33	2-Ixtisoslashtirilgan maktabi davlat muassasasi	202121744	37	3	1	0	2	0	0	0
34	1-maktab	206884157	99	7	3	0	3	0	1	0
35	21-maktab	206884330	43	3	1	0	2	0	0	0
36	39-maktab	206884480	59	4	2	1	0	1	0	0
37	31- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305607949	33	2	1	0	1	0	0	0
38	57- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308545415	21	1	1	0	0	0	0	0
39	5-maktab	203218241	129	9	4	1	3	0	1	0
40	1-son texnikumi	203348104	132	9	4	1	3	0	1	0
41	12-maktab	206884251	129	9	4	0	3	1	1	0
42	23- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207089836	49	3	1	0	2	0	0	0
43	36- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305609304	46	3	1	0	2	0	0	0
44	46- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305609351	21	1	1	0	0	0	0	0
45	42- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546899	25	2	1	0	1	0	0	0
46	11-maktab	206884244	73	5	2	1	1	0	1	0
47	11- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	312620020	21	1	1	0	0	0	0	0
48	18- maktab	203178245	67	5	2	1	2	0	0	0
49	30- maktab	206884394	116	8	3	0	5	0	0	0
50	2- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090425	40	3	1	0	2	0	0	0
51	27- maktab	206884379	150	11	5	1	4	0	1	0
52	37- maktab	206884465	73	5	2	1	2	0	0	0
53	51- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207305700	29	2	1	0	1	0	0	0
54	31- maktab	206884402	99	7	3	1	3	0	0	0
55	Dang'ara tumani irrigatsiya bo'limi	207263865	61	4	2	0	2	0	0	0
56	24- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090529	43	3	1	0	2	0	0	0

57	Dang`ara tumani Bolalar-o`smirlar sport maktabi	207237983	76	5	2	0	3	0	0	0
58	28-sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207008136	60	4	2	0	2	0	0	0
59	16- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207046525	30	2	1	0	1	0	0	0
60	48- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305739333	45	3	1	0	2	0	0	0
61	60- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308971599	36	3	2	0	1	0	0	0
62	"61- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	310127491	24	2	1	0	1	0	0	0
63	2-son texnikumi	200165066	126	9	4	0	5	0	0	0
64	13- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207008112	40	3	1	0	2	0	0	0
65	7- maktab	206884204	70	5	2	1	1	0	1	0
66	21- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090117	42	3	1	0	2	0	0	0
67	9- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090457	27	2	1	0	1	0	0	0
68	22- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207089725	21	1	1	0	0	0	0	0
69	47- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546843	26	2	1	0	1	0	0	0
70	10- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090124	37	3	1	0	2	0	0	0
71	34- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305609637	26	2	1	0	1	0	0	0
72	50- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305909097	34	2	1	0	1	0	0	0
73	3- son texnikum	206930542	68	5	2	0	3	0	0	0
74	2- maktab	206884164	83	6	2	1	3	0	0	0
75	23- maktab	206884347	77	5	2	0	3	0	0	0
76	32- maktab	206884419	70	5	2	1	2	0	0	0
77	27- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207090084	47	3	1	0	1	0	1	0
78	36-maktab	206884458	90	6	3	0	2	0	1	0
79	59- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308544353	35	2	1	0	1	0	0	0
80	3-maktab	206884172	61	4	2	0	2	0	0	0
81	35- sonli maktabgacha	305546804	39	3	1	0	2	0	0	0

	ta`lim tashkiloti									
82	44- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305812385	30	2	1	0	1	0	0	0
83	34- maktab	206884434	127	9	4	0	4	0	1	0
84	Obodonlashtirish boshqarmasi" jamoat birlashmasi	206940997	228	16	7	1	5	1	1	1
85	28- maktab	203153127	119	8	4	0	3	0	1	0
86	4- maktab	206884189	121	8	4	1	2	0	1	0
87	37- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546724	39	3	1	0	2	0	0	0
88	45- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305634876	51	4	2	0	2	0	0	0
89	10- maktab	206884236	95	7	3	1	3	0	0	0
90	33- maktab	206884426	85	6	3	1	2	0	0	0
91	Sirdaryo-So`x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stantsiyalari va energetika boshqarmasi" davlat muassasasi Filial: Dang‘ara uchastkasi	201737832	65	2	2	0	0	0	0	0
92	39- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305586841	74	5	2	0	3	0	0	0
93	8- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207031710	82	6	2	1	3	0	0	0
94	17- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207031734	64	4	2	0	2	0	0	0
95	40– sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305609827	42	3	1	0	2	0	0	0
96	55- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308809053	26	2	1	0	1	0	0	0
97	15-maktab	206884283	111	8	3	1	3	0	1	0
98	53- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207309821	22	2	1	0	0	0	1	0
99	13- maktab	206884268	79	6	2	1	1	1	0	1
100	38- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305546470	32	2	1	0	1	0	0	0
101	Dang'ara tumani hokimligi	200165081	106	7	3	0	4	0	0	0
102	9-maktab	206884229	113	8	3	1	3	0	1	0

103	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Dang‘ara tuman ixtisoslashtirilgan maktabi" davlat muassasasi	309853539	56	4	2	0	2	0	0	0
104	Mudofaa bo'limi	202223284	66	5	2	0	3	0	0	0
105	27-Musiqa va san’at maktabi	207190364	83	6	2	1	3	0	0	0
106	58- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	308545408	36	3	1	0	2	0	0	0
107	49- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305983245	43	3	1	1	1	0	0	0
108	6- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207008104	32	2	1	0	1	0	0	0
109	17- maktab	206884308	82	6	2	0	2	0	1	1
110	15- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207089614	39	3	1	0	2	0	0	0
111	18- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207089883	38	3	1	0	2	0	0	0
112	19- maktab	206884315	94	7	3	0	3	0	1	0
113	Markaziy Shifoxonasi	200165010	2 588	181	78	12	90	0	1	0
114	16- maktab	206884290	76	5	2	3	0	0	0	0
115	22- maktab	206942844	97	7	3	1	3	0	0	0
116	1- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207055941	30	2	1	0	1	0	0	0
117	52- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	207306074	48	3	1	0	2	0	0	0
118	41- sonli maktabgacha ta`lim tashkiloti	305608084	31	2	1	0	1	0	0	0